Abstract: This article analyzes the essence of economic growth in industrial enterprises of the region and its role in the economy, as well as the factors influencing the economic development of industrial enterprises. Also, the effective development of industrial enterprises is based on the diversification of its modern branches and the increase in the volume of modern industrial products, creating certain social and economic conditions for increasing labor potential in society, ensuring employment of the population, increasing the gross domestic product, forming the population's demand for industrial products, and expanding the division of labor.

Key words: economic growth, industrial enterprises, GDP, industrial output, mechanism, employment of the population, social and economic problems.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность экономического роста промышленных предприятий региона и его роль в экономике, а также факторы, влияющие на экономическое развитие промышленных предприятий. Эффективное развитие промышленных предприятий основывается на диверсификации современных отраслей и увеличении объемов выпуска современной промышленной продукции, создании определенных социально-экономических условий для повышения трудового потенциала общества, обеспечения занятости населения, увеличения объема валового внутреннего продукта, формирования спроса населения на промышленную продукцию, а также расширения разделения труда.

Ключевые слова: экономический рост, промышленные предприятия, объем промышленного производства, механизм, занятость населения, социально-экономические проблемы.

KIRISH

Bugungi kunda mintaqada sanoat korxonalarini jadal rivojlantirish asosida iqtisodiy o'sish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali hududiy yalpi ichki mahsulot hajmini 1,5–2,0 baravarga oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Sanoat korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish, korxonalar ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahsulot qiymatini yaratish zanjirini baholash orqali sanoatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi masalalarga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa dunyo bo'yicha sanoat korxonalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda sanoat mahsulotlarini ko'paytirish va sifatini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. «Mahalliy sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni diversifikatsiya qilish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan unumli foydalanish asosida sanoat mahsulotlarini rivojlantirishning strategiya va modellarini ishlab chiqish» [2] muhim vazifalardan hisoblanadi. Bularning ustuvor vazifa sifatida belgilanishi sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishini ta'minlash muhimligini bildiradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalari iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik masalalarining ilmiy asoslari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan tizimli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, P.F. Druker [3], B.Z. Milner [4], F. Xersberg [5], G. Emerson [6] va boshqa olimlarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, sanoatni rivojlantirish va uning iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda sanoat mahsuloti qiymatini yaratish zanjiri samaradorligini baholash bo'yicha MDH davlatlari olimlari: N.K. Vasilyeva [7], V. Paraxina [8], Y.V. Pilipuk [9], Ye.Y. Shutilina [10]larning ilmiy ishlari natijalari e'tiborga molik sanaladi.

Respublikamizda ham A.M. Kadirov [11], M.A. Mahkamova [12], B.T. Salimov [13] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirish, sanoat mahsulotlarining iqtisodiy o'sishini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan hamda e'tiborga molik ilmiy natijalarga erishilgan.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning mohiyati va ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini asoslab berish, sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari, hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir tahlilda induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, jadval va grafiklar usullaridan foydalanildi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sishni YAIMning real hajmi yoki milliy daromad o'sishi sur'atlari, yoxud bu ko'rsatkichlarning aholi jon boshiga hisoblagandagi o'sish sur'atlari bilan o'lchanadigan iqtisodiyotning muayyan davrdagi rivojlanishi sifatida ifodalash mumkin. Bunda o'sish sur'ati, birinchidan, mamlakat iqtisodiy salohiyati kengayishi sur'atlarini baholashda, ikkinchidan, aholi farovonligi dinamikasini tahlil etishda yoki turli mamlakatlar va mintaqalarda turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy o'sishning yuqorida qayd etilgan ikkinchi usuliga ustunlik beriladi, ya'ni bunda milliy iqtisodiyotda real milliy daromad ko'payishi sur'atlari aholi o'sishi sur'atlaridan yuqori bo'lgan rivojlanish nazarda tutiladi.

Mintaqada sanoat korxonalarining rivojlanish bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat korxonalarini rivojlanishi bosqichida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat korxonalarini rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi — bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar va venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim va salomatlikni qamrab olar edi. Shu bilan birga, uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan taraqqiyotning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya va ta'limga investitsiyalar noishlab chiqarish xarajatlari hisoblanardi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta'limga nisbatan munosabat asta-sekin tubdan o'zgarib boshladi.

Mintaqada sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash jamiyatdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti sifatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni va uning tarmoq xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, mintaqada sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayonidagi ilmiy asoslangan qoidalarni aks ettiradi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bir qator tamoyillarga asoslanishi kerakki, bunda iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari iqtisodiy o'sish samaradorligining oshishi va aholi jon boshiga sohadagi yalpi mahsulotning real o'sishi imkonini berishi zarur (1-jadval).



1-jadvalda keltirilgan tamoyillar sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan bog'liq qaysi vazifani hal etishga qaratilgan bo'lsa, ularni shu vazifaga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir.

1-Jadval.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari¹

Tamoyillari	Mazmuni
Resurslarni adolatli taqsimlash	Resurslarni adolatli ravishda taqsimlash jamiyat barcha azolari uchun ne'matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o'rtasidagi bog'liqlik soliq-byudjet va ijtimoiy siyosat choralari qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantirilishi kerak.
Kognitivlik (intensiv rivojlanish)	Bu tamoyilning mazmuni iqtisodiy tizimga munosabatlar bo'yicha sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash nafaqat uning ustuvor tarmoqlari va yo'nalishlarini rivojlantirishga, balki bilim orttirish, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Innovatsion iqtisodiyot doimo rivojlanadi, takomillashadi, transformatsiyalashadiki, buning natijasida iqtisodiyot ham miqdor jihatdan, ham sifat jihatdan barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'ladi.
Иқтисодиёт мослашувчан-лиги	Mazkur tamoyil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarga asoslangan holda rivojlanishning "moslashuvchan" usullarini joriy qilish zarurati, makroiqtisodiy holatlarning dinamik o'zgarishiga moslashuvchan munosabat bildirish, makro va mikro darajalarda moslashuvchan munosabatlarni shakllantirish, jamiyatda innovatsion xulq-atvor motivatsiyasini rag'batlantirish, innovatsion biznesni kengaytirish kabilarni ifodalaydi.
O'zaro muvofiqlik va integratsiya	Bu tamoyil mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, sanoat korxonalarining asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, tarmoqlar, komplekslar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, sanoat mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.
Komplekslilik	Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uning tarmoqlarini rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o'ylangan uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish, shu asosda asosiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirishni nazarda tutadi.
Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish	Mazkur tamoyilga ko'ra, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, mehnat unumdorligini o'stirish, sanoat mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlari va sanoat mahsulotlar ishlab chiqarish tannaxirini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish choralari ishlab chiqish kerak.

Bizning fikrimizcha, bu holat sanoat korxonalarini rivojlanishining o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda axborot texnologiyalari moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarda samaradorlikning oshishiga olib kelmoqda, ammo uning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'siri masalalari alohida dolzarb hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sanoat korxonalarini turlari bo'yicha fan-texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlarini mehnat jarayoniga joriy etish bir xilda qabul qilish xususiyatiga ega, bu esa o'z navbatida yuqori samaradorlikka o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Sanoat korxonalarini faoliyati unumdorligining o'sish darajasining turlichaligi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida FTT ta'sirining har xilligi, iste'molchilarning sanoat mahsulotlari iste'moliga jalb qilinish darajasiga bog'liqligi bilan asoslanadi.

Iqtisodiy o'sishga ko'plab omillar, jumladan, iqtisodiy tizimning tashkil etilishi, iqtisodiyotning tuzilishi, milliy daromadning taqsimlanishi, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy holati va boshqalar ta'sir qiladi. Ta'kidlash kerakki, "iqtisodiy o'sish" tushunchasi "iqtisodiy rivojlanish" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning mohiyati va mazmuni shu qadar chambarchas bog'liqki, iqtisodiy dinamikaga oid ayrim tadqiqotlarda ular sinonim sifatida ishlatiladi. Iqtisodiy o'sish ko'pgina omillarga bog'liqdir. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish vositalari bo'yicha ular bevosita va bilvosita omillarga ajratiladi (1-rasm).

Bevosita omillarga taklif omillari kiradi. Ular quyidagilardan iborat: mehnat resurslarining miqdori va sifati; tabiiy resurslarning miqdori va sifati; asosiy kapitalning hajmi; texnologiya va ishlab chiqarishning tashkil etilishi; jamiyatda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish darajasi.


1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bilvosita omillarga quyidagi talab omillari kiradi: iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarning o'sishi; eksport hajmining ortishi.

Taqsimlash omillari esa quyidagilardan iboratdir: bozor monopoliyalashuvi darajasini kamaytirish; iqtisodiyotda soliq muhiti; kredit-bank tizimining samaradorligi; iqtisodiyotda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari; daromadlarni taqsimlashning amaldagi tizimi.

Bu omillarning sanoat korxonalarining rivojlanishiga ta'sir darajasi iqtisodiy o'sish turini belgilaydi. Iqtisodiy o'sishning ikkita asosiy turi mavjuddir:

Ekstensiv – bunda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) omillarining miqdor jihatdan ko'paytirilishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni jamiyat tabiiy, mehnat va investitsiya resurslardan ko'proq foydalanadi va shu hisobga sohada yalpi mahsulotning o'sishi ta'minlanadi(1-rasm).



1-rasm. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish xususiyatlari va omillari

Intensiv – bunda sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan takomillashtirish va ulardan yaxshiroq foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Intensiv iqtisodiy o'sishda sohada yalpi mahsulot yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ish kuchi malakasini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini samaraliroq tashkil etish, resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida maqbulroq qayta taqsimlash va hokazolar hisobiga ko'paytiriladi.

Amaliyotda ekstensiv yoki intensiv iqtisodiy o'sishni "sof" holda uchratish qiyin. Bunda odatda qaysi (intensiv yoki ekstensiv) omillar ustuvorligiga qarab, ko'proq intensiv yoki ko'proq ekstensiv iqtisodiy o'sish farqlanadi.


Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi (2-rasm):

Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish maqsadlari. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish maqsadining ikki darajasini keltirish mumkin: asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va aholi turmush darajasining o'zgarishi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish uzoq muddatli maqsadi amalga oshirilishining muhim sharti sifatida iqtisodiyotning barcha subyektlarining yaxlit tarzdgai rivojlanishi, ular har biri tomonidan ma'lum



strategik maqsadlarga erishishning ta'minlanishi namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish turi. Sanoat korxonalarida mavjud iqtisodiy resurslar, shuningdek, ishlab chiqarish omillarining mutanosibligi va o'zaro harakati iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlarini belgilaydi (2-rasm).



2-rasm. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning o'ziga xos jihatlari²

Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish jarayoni miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning miqdoriy ko'rsatkichlariga yalpi mahsulotning o'sish sur'ati, jon boshiga to'g'ri keluvchi sohada yaratilgan yalpi mahsulotning o'sish sur'ati, sanoat mahsulotlari hajmining o'sish sur'atlari, iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi) ko'rsatkichlari va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy o'sish samaradorligi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish samaradorligining oshishi va uning hajmining ijobiy o'zgarishiga asoslangan rivojlanish natijasida jamiyatning uzluksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarining qondirilishi ta'minlanadi.

Iqtisodiy o'sish ziddiyatlari. Sanoat korxonalarida yalpi mahsulotning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda o'sishi hali turmush darajasi va sifatining yaxshilanishiga olib kelavermaydi. Mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, shu jumladan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yalpi mahsulot hajmi va aholining jon boshiga o'rtacha daromadi ijtimoiy resurslarni taqsimlash yoki uning tarmoqlarini rivojlantirish darajasi bo'yicha tasniflashda asosiy mezon bo'la oladi.

Iqtisodiy o'sish omillari tizimi. Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sish omillariga iqtisodiy o'sishning xususiyati, jihatlari, turlari va dinamikasini aniqlovchi sabab-oqibat hodisalari hamda zarur sharoitlar kiradi.

Sanoat korxonalarida yalpi mahsulot hajmi o'zgarishini uslubiy jihatdan o'rganishda unga ta'sir etuvchi asosiy omillarning bog'liqligini o'rganish muhimdir. Bunda sohada yalpi mahsulotni yaratishga ishtirok etuvchi asosiy omillar sifatida mehnat va kapital asosiy o'ringa ega. Sanoat korxonalarida yalpi mahsulot hajmining barqaror o'sishini yanada jadallashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- sanoat korxonalarining zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish va yalpi mahsulot hajmini tarkibiy o'zgartirish, ya'ni raqamlashtirish va diversifikatsiyalash;
- sanoat korxonalarida xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish;
- sohada bandlik darajasini oshirish va undan samarali foydalanish;
- yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va kiritiladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish;
- faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash;
- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha resurs salohiyatini oshirish;
- sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va sun'iy intellektdan keng foydalanish.

Shunday qilib, "iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" o'rtasidagi farq, birinchi navbatda, ularning mazmunidadir. Iqtisodiy o'sish umumiy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan bog'liq. Bu yerda asosiy belgilar, birinchi navbatda, umumiy va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'ati kabi miqdoriy ko'rsatkichlar kiritiladi.

Rivojlanish — bu samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, iqtisodiyotning institutsional asoslarini yaratish va undagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq turli xil muammolarni o'rganishni

nazarda tutadigan keng qamrovli tushunchadir. Shu sababli, mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishini o'rganishda quyidagilarni inobatga olish kerak:

Ma'lumki, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari klassik ta'rifga ko'ra mehnat, yer, kapital va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdir. Mehnat, yer va kapital moddiylashtirilgan shaklga ega, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot esa ularning sifatini oshirishga xizmat qiladi, bu nafaqat ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga, balki ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot va xizmatlar sifati, xarajatlar miqdori, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi hamda o'z navbatida aholi farovonligiga ham ta'sir qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, aholining zarur ta'lim darajasini, ilm-fanning rivojlanishini va axborot muhitining yuqori sifatini ta'minlay olmagan davlatlar tashqi savdo salbiy balansiga va tashqi moliyaviy hamda axborot markazlariga qaramlikka mahkum bo'ladi; ular intellektual salohiyatni jamlagan transmilliy korporatsiyalar va rivojlangan mamlakatlar uchun xom ashyo bazasi sifatida bo'lib qoladilar.

Bozor munosabatlari tizimida iqtisodiy o'sishga xo'jalik faoliyati institutlari, ularning bajarilishini ta'minlaydigan muassasalar va tashkilotlarning rivojlanish darajasi katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ularning iqtisodiy farovonligiga hissa qo'shadigan, tadbirkorlik, innovatsiyalar, jamg'armalar va investitsiyalar uchun ijobiy motivatsiya yaratadigan samarali institutlar tizimi mavjud.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish — bu sanoat korxonalarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan jarayondir. Jahon banki hisobotida ta'kidlanishicha, rivojlanish maqsadi nafaqat daromadni oshirish orqali, balki hayot sifatini yaxshilashdir. Bunga sifatli ta'lim, ovqatlanish, sog'liqni saqlash, qashshoqlikni kamaytirish, sog'lom muhit, teng imkoniyatlar, shaxsiy erkinlikni oshirish va boy madaniy hayot kiradi.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning ajralmas elementi sifatida qaraladi. Bu, bir tomondan, rivojlanishning siklik xususiyatini keltirib chiqaradi, ikkinchi tomondan esa, uning o'zi turg'unlik va tushkunlik davrlarida tayyorlangan o'zgarishlar natijasidir. Iqtisodiy rivojlanish esa, birinchi navbatda, iqtisodiyotning taraqqiyot qobiliyatini nazarda tutadi va ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishi, institutsional muhitning o'zgarishi, demografik va innovatsion dinamizm sifatida aniqlanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o'sish omillarining sifat jihatidan o'zgarishini nazarda tutadi.

FOYALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.imf.org/ru/Blogs/Articles/2023/01/30/global-economy-to-slow-further-amid-signs-of-resilience-and-china-re-opening>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4821-son qarori.
3. Друкер П.Ф. Бизнес и инновации. – М.: Академия, 2009. – 221 с.
4. Милнер Б.З. Теория организации: Учебник. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 864 с.; Портер М. Конкуренция. – М.: Вильямс, 2010. – 592 с.
5. Херсберг Ф., Моснер Б., Блох Сидерман Б. Мотивация к работе. – М.: Вершина, 2007. – 240 с.
6. Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности. – М.: УРСС, 2019. – 224 с.
7. Васильева Н.К., Мезина С.А., Воротникова А.М. Анализ финансового состояния предприятий пищевой промышленности // Вестник Академии знаний. – 2020. – № 2 (37). – С. 105–110.
8. Парахина Л.В. Управление ресурсосберегающей деятельностью и оценка ее эффективности на предприятиях пищевой промышленности: автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. – Орел, 2013. – 24 с.
9. Пилипук А.В. Конкурентоспособность предприятий пищевой промышленности Беларуси в условиях построения Евразийского экономического союза. – Минск: Институт системных исследований в АПК НАН Беларуси, 2018. – 237 с.
10. Шутилина Е.И. Формирование инновационной политики предприятий: на примере предприятий пищевой промышленности: автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. – Воронеж, 2009. – 24 с.; Якушков Д.И. Анализ рынка пищевой промышленности и перспективы его развития // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2018. – № 6. – С. 216–218.
11. Кадиров А.М. Инновационный потенциал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка // Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновации, конкурентоспособность, инвестиции». – Т., 23 апреля 2018 г.
12. Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан: дисс. док. экон. наук. – Т., 2004. – 291 с.
13. Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона (на примере Сырдарьинской и Джизакской областей Республики Узбекистан): дисс. д.э.н. – Т., 1992.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100